

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

JURAYEV UMIDJON SAYFULLAYEVICH

VEYVLET USULIDA BIOTIBBIYOT SIGNALLARI VA RADIOLOGIK
DIAGNOSTIKA TASVIRLARIGA RAQAMLI ISHLOV BERISH
ALGORITMLARI VA DASTURLARI

05.01.04–Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining
matematik va dasturiy ta’minoti

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Jurayev Umidjon Sayfullayevich

Veyvlet usulida biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlariga raqamli ishlov berish algoritmlari va dasturlari.....3

Жураев Умиджан Сайфуллаевич

Алгоритмы и программы цифровой обработки биомедицинских сигналов и радиологических диагностических изображений вейвлет-методом.....21

Jurayev Umidjon Sayfullayevich

Algorithms and programs for digital processing of biomedical signals and radiological diagnostic images using the wavelet method.....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....44

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

JURAYEV UMIDJON SAYFULLAYEVICH

VEYVLET USULIDA BIOTIBBIYOT SIGNALLARI VA RADIOLOGIK
DIAGNOSTIKA TASVIRLARIGA RAQAMLI ISHLOV BERISH
ALGORITMLARI VA DASTURLARI

05.01.04–Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining
matematik va dasturiy ta’minoti

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/T2193 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Zaynidinov Xakimjon Nasiridinovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kabulov Anvar Vasilovich
texnika fanlari doktori, professor

Karshiyev Zaynidin Abduvalievich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari, universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "5" iyul da soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: iktuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (315 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "19" iyun kuni tarqatildi.
(2024-yil "15" iyun dagi 10 raqamli reestr bayonnomasi).



M.M. Musayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, texnika fanlari
doktori, professor



E.Sh. Nazirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari
doktori, professor

Dj.B. Sultanov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash huzuridagi ilmiy
seminar raisi, texnika fanlari
doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishida signallarni tiklash, signallarni tahlil qilish va tasvirlarga raqamli ishlov berishda Haar, Dobeshi, Meyer, Symlet, Coiflet veyvletlari keng qo'llanilmoqda. Veyvletlar yordamida signallarga raqamli ishlov berish natijasida hosil bo'ladigan xatoliklarni va hisoblash amallarini kamaytirish maqsadida takomillashtirilgan matematik modellar hamda algoritmlarni ishlab chiqish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Veyvletlar yordamida signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berish usullari, matematik modellari, algoritmlari va dasturiy vositalarini ishlab chiqish bo'yicha AQSH, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliya, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarda ilg'or tadqiqotlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 2023-yil yanvar-iyun oylarida vafot etganlar soni 79,8 ming kishini tashkil etadi¹. Bunga ko'ra, yarim yil davomida qayd etilgan o'lim holatlarining 51,9 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 11,5 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 9,5 foizi o'simtalardan ekani aniqlangan. Yana 4,4 foiz odam ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari, 3,6 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlar, 1,4 foizi yuqumli va parazitar kasalliklar hamda 17,7 foizi boshqa kasalliklardan o'lim holatlari kuzatilgan. Shu sababli, turli kasalliklarni birlamchi va to'g'ri tashxislash hamda erta aniqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahonda meditsina sohasiga bo'lgan e'tibor va talab kun sayin ortib bormoqda, chunki bemorlarning kasalliklarini vaqtida bartaraf etish va unga aniq tashxis qo'yish, uning tahlilini sifatli va qisqa vaqt mobaynida aniqlash hamda moddiy resurslarni tejash asosiy masalalardan biridir. Shu sababli inson organizmidan olinadigan signallarni raqamli ishlash va tahlil qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Bunday masalalarni yechish hamda yuqori darajadagi aniqliklarga erishish uchun signallar va tasvirlarni raqamli ishlashda muhim hisoblangan Dobeshi veyvlet koeffitsiyentlarini hisoblash modellari, usullari va algoritmlarini takomillashtirish orqali hisoblashlar sonini kamaytirish va tadqiq qilish lozim bo'ladi. Signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berishda qo'llaniladigan veyvletlarni tahlil qilish va mosini aniqlash hamda tadqiq qilish orqali ushbu masalalarni yechish mumkin.

Respublikamizda tibbiyot signallariga raqamli ishlov berishda Haar, Dobeshi, Meyer, Symlet, Coiflet veyvletlaridan foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Mamlakatimizda mazkur yo'nalishda signallarga raqamli ishlov berish, jumladan, biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlarini tahlil qilish, tiklash hamda dasturiy vositalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqamli texnologiyalarni ham jamiyatning barcha sohalarida keng joriy etish yuzasidan bir qator vazifalar belgilab berildi.

¹ <https://stat.uz/uz/nashrlar-menu/infografikalar/396-infografikalar/34842-2023-11113>

Raqamlashtirish texnologiyalarini iqtisodiyot, ijtimoiy soha va boshqaruv tizimlariga joriy etish shular jumlasidandir¹. Jumladan, Prezident farmonida “Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish, aholi salomatligini saqlash, sog‘liqni saqlash sohasini raqamlashtirishning 2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish” va 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmonida sog‘likni saqlash tizimida axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hamda 2021-yil 23-fevraldagi PQ-5000-son “Sog‘liqni saqlash sohasida raqamlashtirish ishlarini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida raqamlashtirish bo‘yicha bir qancha vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, siganallarga raqamli ishlov berishda mavjud veyvlet modellaridan foydalanib uning takomillashtirilgan veyvlet modellarini ishlab chiqib, tibbiyotdagi muhim masalalarni yechish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 10-yanvardagi “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 17-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4996-sonli qarorida² tibbiyot sohasida inson o‘pkasining kompyuter tomografiyasi tahlili asosida pnevmoniyani aniqlash hamda mammografiya tahlili asosida ko‘krak bezi saratoniga ilk bosqichda tashxis qo‘yish uchun sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining o‘rganilganlik darajasi. Signallarga raqamli ishlov berishda bir va ikki o‘zgaruvchili Dobeshi veyvlet modellari va algoritmlarini ishlab chiqish muammolari jahonda va O‘zbekiston ilmiy manbalarida keng yoritilgan. Signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berish bo‘yicha xorijiy olimlar: A.Haar, I.Dobeshi, Y.Meyer, K.Chui, S.F.Svinin, S.B.Stechkin, O.V.Nagornov, M.Lofti, D.Singh, G.Streng va boshqa xorijiy olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Shuningdek, O‘zbekistonda M.M.Kamilov, Sh.X.Fozilov, T.F.Bekmuratov, M.M.Musayev, A.R.Hayotov, X.N.Zaynidinov, N.S.Mamatov, U.R.Xamdovlar tomonidan signallarga va tasvirlarga raqamli ishlov berish jarayonlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Bundan tashqari, Dobeshi veyvletlari va ular asosida yaqinlashish masalalarini yechish usullarini tadqiq etish

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.// lex.uz/uz/docs/-5841063

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi “Sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4996-sonli qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-5297046>

bo'yicha xorijiy olimlar: A.Grossman, H.Zhang, S.A.Mallat, N.Astafyeva, I.Y.Novikov, G.M.Batanov, I.M.Dermin, A.A.Afanasev, S.F.Svinin, Y.A.Xamad, B.V.Kravchenko va boshqa xorijiy olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda X.N.Zaynidinov, U.R.Xamdamov, Sh.U.Urakov, J.U.Jurayev, F.T.Mullajonova kabi bir qator olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Signallarga raqamli ishlov berishda ikkinchi tartibli Dobeshining ikki o'zgaruvchili veyvlet modellaridan foydalanib, tasvirlarga raqamli ishlov berish, ulardan muhim xususiyatlarni ajratish va tahlil qilish uchun avtomatlashtirilgan aqlli tizimlar yaratishning mavjud usul va algoritmlarini takomillashtirish orqali tasvirlardan ob'yektlarni aniqlash va sinflashtirishning samarali algoritmlari va dasturiy vositalarini ishlab chiqish yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № FZ-20200930404 "Bo'lak-polinomial bazislarda signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berishning intellektual dasturiy-texnik tizimlarini yaratishning nazariy metodologik asoslari" (2021-2024) mavzularidagi ilmiy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Dobeshi veyvlet usuli yordamida biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlariga raqamli ishlov berish algoritmlari va dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

biotibbiyot signallari va tasvirlariga raqamli ishlov berishning veyvlet usullarini tahlil qilish;

EKG signalidagi apparat shovqinlarini Dobeshi veyvlet usuli yordamida filtrlash algoritmini ishlab chiqish;

tibbiyot tasvirlarini ko'p masshtabli Dobeshi veyvletidan foydalangan holda siqish algoritmini ishlab chiqish;

veyvlet-CNN orqali o'pka rentgen va tomografik tasvirlarini tahlil qiluvchi neyron tarmoq algoritmi va arxitekturasini loyihalash bosqichlarini ishlab chiqish;

biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlarini raqamli ishlashning dasturiy majmuasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida tibbiyotda EKG signallari va tajribadan olingan radiologik diagnostika tasvirlarni raqamli ishlash jarayonlari qaralgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida bir o'zgaruvchili va ikki o'zgaruvchili ikkinchi tartibli Dobeshi veyvletlari asosida signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berish usullari, algoritmlari va dasturiy vositalari olingan.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida funksional tahlil nazariyasi, veyvlet tahlil va matematik modellashtirish nazariyasi, vektorlar va matritsalar nazariyasi, sonli hisoblash usullari, signallarga raqamli ishlov berish usullari, ehtimollar nazariyasi, shuningdek, chuqur o'qitish algoritmlariga asoslangan neyron tarmoq modellaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

EKG signalining apparat shovqinlarini ikkinchi tartibli Dobeshi veyvlet usuli yordamida filtrlash algoritmi ishlab chiqilgan;

tibbiyot tasvirlarini ko'p masshtabli Dobeshi veyvletidan foydalangan holda siqish usuli taklif qilingan;

veyvlet-CNN orqali o'pka rentgen va tomografik tasvirlarini tahlil qiluvchi neyron tarmoq algoritmi va arxitekturasini loyihalash bosqichlari ishlab chiqilgan;

biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlarini raqamli ishlov berishning dasturiy majmua strukturasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Dobeshining veyvlet bazislarida EKG signallarini apparat shovqinlardan tozalash algoritmi va dasturiy vositasi ishlab chiqilgan;

Dobeshi veyvlet usulida radiologik diagnostika tasvirlarini raqamli ishlov berish algoritmi va bu algoritm asosida o'pka rentgen va tomografik tasvirlaridan o'pka kasalliklarini tashxislash va tasniflashning konvolutsion neyron tarmoq modeli ishlab chiqilgan va shu asosida tibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlarini raqamli ishlash jarayonlari uchun dasturiy majmua yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoni o'rganish va tahlil qilish natijasida tibbiyot sohasida EKG signallarini hamda radiologik diagnostika tasvirlarini raqamli ishlov berish uchun qo'llaniluvchi hisoblash tizimlarining samaradorligiga qo'yiladigan yuqori talablar, shuningdek, nazariy va amaliy tadqiqotlardan olingan natijalar va ularning muvofiqligi orqali asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati EKG signallarini va radiologik diagnostika tasvirlarini raqamli ishlashda Dobeshi veyvlet usullarining matematik apparati va algoritmlarini ishlab chiqish uchun nazariy va uslubiy asoslar, raqamli ishlash tizimlari uslubiyatlari bilan izohlanadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bir o'zgaruvchili ikkinchi tartibli Dobeshi veyvleti usuli yordamida EKG signallariga raqamli ishlov berish orqali undagi apparat shovqinlarni tozalash hamda ikki o'zgaruvchili ikkinchi tartibli Dobeshi veyvletida yordamida radiologik diagnostika tasvirlariga raqamli ishlov berish orqali tasvirlarni shovqindan tozalash, sifatini yaxshilash, siqish algoritmlari asosida ishlab chiqilgan dasturiy majmua, Respublikamiz tibbiyot tadqiqot markazlarida katta hajmdagi signallarni raqamli ishlash va rentgen hamda tomografik tasvirlarni analiz va sintez qilish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya tadqiqotlari doirasida bir va ikki o'zgaruvchili Dobeshi veyvletlari yordamida signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berish algoritmlari va ularning dasturiy vositalari yordamida olingan ilmiy yangiliklar asosida:

Dobeshi veyvlet usulida EKG signallarini apparat shovqinlaridan tozalash asosida tashxislash samaradorligini oshirish dasturiy vositasi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi Sirdaryo filialiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023 yil 10 avgustdagi 33-8/5448-son ma'lumotnomasi). Dasturiy vositani tatbiq etilishi ilmiy-

tadqiqotlar samarasini, olingan natijalarning informativligi, aniqligi va ishonchliligini oshirgan hamda xatoliklarni kamaytirilishiga olib kelgan: xatolik 8-10% ga kamaygan, mehnat unumdorligi esa 4-7% ga oshgan;

Ko'krak qafas rentgen tasvirlaridan bakterial pnevmoniya, sil, Covid-19, sog'lom o'pka, viral pnevmoniya kasalliklarini tasniflash uchun sun'iy intellekt dasturiy vositasi Samarqand viloyat 1-son shahar shifoxonasiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023 yil 10 avgustdagi 33-8/5448-son ma'lumotnomasi). Dasturiy vositaning tatbiq etilishi ilmiy-tadqiqotlar samarasini, olingan natijalarning informativligi, aniqligi va ishonchliligini oshirgan hamda xatoliklarni kamaytirilishiga olib kelgan: ketadigan vaqt 3 barobarga, xatolik 6-10% ga kamaygan, mehnat unumdorligi esa 3-6% ga oshgan. Ushbu dasturiy vositani tatbiq etish natijasida iqtisodiy samaradorlikka erishilgan;

Sun'iy intellekt va chuqur o'rganish algoritmlari hamda veyvlet asosli konvolutsion neyron tarmoqlardan foydalangan holda ko'krak qafasi kompyuter tomografiyasidan o'pka saratoni turlari bo'yicha tashxislash va sinflash dasturiy vositasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialiga hamda Sirdaryo viloyati, Guliston shahar "RDM" xususiy klinikasiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023 yil 10 avgustdagi 33-8/5448-son ma'lumotnomasi). Dasturiy vositasining tatbiq etilishi ilmiy-tadqiqotlar samarasini, olingan natijalarning informativligi, aniqligi va ishonchliligini oshirgan hamda xatoliklarni kamaytirilishiga olib kelgan: ketadigan vaqt ikki barobarga, xatolik 7-11% ga kamaygan, mehnat unumdorligi esa 5-8% ga oshgan.

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 13 ta, jumladan, 7 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, 3 tasi xorijiy va 4 tasi Respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 6 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qayd qilish guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilish va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar va atamalar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berishda qo‘llaniladigan veyvlet usullarining analitik tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida signallarga raqamli ishlov berishning qo‘llanilish sohalari va yo‘nalishlari rivoji, veyvlet usullarining turlari va uning ahamiyati haqida batafsil ma‘lumotlar keltirildi. Veyvletlarning xususiyatlari o‘rganildi va ularning turlari bo‘yicha solishtirma tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval.

Veyvletlar xususiyatlarining solishtirma tahlili

Xususiyatlar	Veyvletlar oilasi														
	Morlet	Mexican Hat	Meyer	Battle-Lema	Haar	DbN	SymletN	CofletN	BiorN-RbiorN	Gaussian	D Meyer	C Gaussian	C Morlet	C B-Spline	C Shannon
Muntazamlik	√	√	√							√		√	√	√	√
Ortogonal ixcham tashuvchiga egaligi					√	√	√	√							
Simmetriklik	√	√	√	√	√				√	√	√	√	√	√	√
Assimmetriklik						√									
$\varphi(t)$ masshtablash funksiyasi			√	√	√	√	√	√	√						
Ortogonal tahlil			√	√	√	√	√	√							
Aniq tiklash	#	√	√	√	√	√	√	√	√	√	#	√	#	√	√
Uzluksiz o‘zgartirish	√	√	√	√	√	√	√	√	√						
Diskret o‘zgartirish					√	√	√	√	√		√				
Tez o‘zgartirish					√	√	√	√	√						
Aniq ifoda	√	√							*	√		√	√	√	√

Bu yerda # – deyarli aniq tiklash, * – Splaynlar uchun aniq ifoda.

Tadqiqot ishida bugungi kunda keng foydalanilayotgan ba’zi veyvlet turlarining solishtirma tahlil natijalari keltirildi.

Ushbu bobda tadqiqot ishi masalalari belgilab olindi. Qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun veyvlet turlari tahlil qilindi va natijalarga, asosan, 2-tartibli Dobeshi veyvleti tanlab olindi. Mazkur tadqiqot ishi biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlariga raqamli ishlov berish bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, biotibbiyot signallar manbai sifatida EKG hamda ko‘krak qafasi rentgen va tomografik tasvirlarda qo‘llanildi.

Dissertatsiyaning **“Biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlarini raqamli ishlash uchun veyvlet koeffitsiyentlarini hisoblash usullari”** nomli ikkinchi bobida, signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berishda, bir

va ikki o'lovli Dobeshi veyvletini qurish orqali masshtablash va veyvlet funksiyalari aniqlandi. Olingan filtr koeffitsiyentlari asosida ikkinchi tartibli Dobeshi veyvletining aproksimatsiya va detal koeffitsiyentlari takomillashtirilgan Malla algoritmi asosida hisoblab chiqildi.

Dobeshi veyvletini qurish uchun masshtablash va veyvlet funksiyalari keltirilgan:

$$\varphi(t) = \sqrt{2} \sum_k h_k \varphi(2t - k) \quad (1)$$

$$\psi(t) = \sqrt{2} \sum_k g_k \psi(2t - k) \quad (2)$$

bu yerda (1) formuladagi h_k va (2) formuladagi g_k lar mos ravishda masshtablash va to'liq tenglamalarining koeffitsiyentlari bo'lib, h_k uchun quyidagi tenglik o'rinli:

$$\begin{cases} h_0^2 + h_1^2 + h_2^2 + h_3^2 = 1 \\ h_2 h_0 + h_3 h_1 = 0 \\ h_3 - h_2 + h_1 - h_0 = 0 \\ 0h_3 - 1h_2 + 2h_1 - 3h_0 = 0 \end{cases} \quad (3)$$

h_k -koeffitsiyentlar aniqlangandan so'ng, h_k yordamida g_k larni quyidagi munosabat orqali aniqlanadi:

$$g_k = (-1)^k h_{2M-k-1} \quad (4)$$

$$g_0 = h_3, g_1 = -h_2, g_2 = h_1, g_3 = -h_0$$

$\varphi(t)$ funksiyaning veyvlet o'zgarishini topish uchun $\{a_i, d_i\}$ koeffitsiyentlarini hisoblash talab etiladi. Bu koeffitsiyentlar quyidagi integral orqali topiladi:

$$a_k = (f, \varphi_k) = \int_R f(x) \overline{\varphi(x)} dx \quad (5)$$

$$d_k = (f, \psi_k) = \int_R f(x) \overline{\psi(x)} dx \quad (6)$$

(5) va (6) da $\{a_i, d_i\}$ koeffitsiyentlarni topish uchun ko'p sonli integrallarni hisoblash muammosi mavjud. Bu muammoni hal qilish uchun Malla tomonidan taklif qilingan tez o'zgartirish usulidan foydalanildi. Malla algoritmi veyvlet o'zgartirish koeffitsiyentlarini algebraik operatsiyalaridan foydalangan holda hisoblash imkonini beradi:


$$a_i = h_0 f_{2i} + h_1 f_{2i+1} + h_2 f_{2i+2} + h_3 f_{2i+3} \quad (7)$$

$$d_i = g_0 f_{2i} + g_1 f_{2i+1} + g_2 f_{2i+2} + g_3 f_{2i+3}$$

(7) formulalardagi a_i Dobeshining masshtablash koeffitsiyentlari, d_i Dobeshining veyvlet koeffitsiyentlari. Ushbu (7) tengliklar veyvlet koeffitsiyentlarini hisoblash uchun tezkor algoritmlarni ta'minlaydi. (7) formulaga ko'ra Dobeshi veyvleti asosidagi veyvlet o'zgartirish quyidagicha quriladi:


$$D(a, b) = \sum_i^{2M-1} a_i + \sum_i^{2M-1} d_i \quad (8)$$

Ikki o'lovli $a^{(0)}(n_1, n_2)$ signallar uchun Dobeshi veyvleti yordamida 2-darajali parchalanish koeffitsiyentlarini olish quyidagicha amalga oshiriladi (1-rasm).



1-rasm. Ikki o‘lchovli signallar uchun Dobeshi veyvleti yordamida 2-darajali parchalanish koefitsiyentlarini olish

Ikki o‘lchovli signallar uchun tasvirlarni parchalanish algoritmi bir o‘lchovli holatda ishlatiladigan algoritimga o‘xshaydi. Ma’lumki, Dobeshi veyvletlari $\phi_{J,n}(x)$ va $\psi_{J,k}(x)$ bazis funksiyalarini hosil qiladi. Ikki o‘lchovli $a(n_1, n_2)$ signal $L^2(\mathbb{R}^2)$ da $\phi_{J,n}(x)\phi_{J,m}(y), \phi_{J,n}(x)\psi_{J,m}(y), \psi_{J,n}(x)\phi_{J,m}(y)$ va $\psi_{J,n}(x)\psi_{J,m}(y)$ bazis funksiyalari bo‘yicha parchalanadi (2-rasm).




2-rasm. Ikki o‘lchovli signal uchun veyvlet koefitsiyentlarni olish ketma-ketligi

Ushbu bobda bir va ikki o‘lchovli Dobeshi veyvlet koefitsiyentlarini hisoblash jarayonlari takomillashtirildi va tasvirlarni kodlash va filtrlash uchun ishlatiladigan filtrlarning solishtirma tahlili amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **“Biotibbiyot signallari va radiologik diagnosika tasvirlariga raqamli ishlov berishda veyvletlarga asoslangan algoritmlar va neyron tarmoq arxitekturasini ishlab chiqish”** deb nomlangan uchinchi bobida EKG signallarini apparat shovqinlardan tozalash va tibbiyot tasvirlarini Dobeshi veyvlet usulida raqamli ishlov berish algoritmlari, o‘pka rentgen va tomografik tasvirlardan kasalliklarni tashxislash va tasniflashda veyvletlarga asoslangan konvolutsion neyron tarmoq arxitekturalarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Tadqiqot ishida EKG signallarini Dobeshi veyvlet usulida apparat shovqinlardan tozalash algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu algoritm quyidagi keltirilgan (3-rasm).



3-rasm. EKG signallarini apparat shovqinlardan tozalash algoritmi

EKG signalini turli veyvletlar asosida shovqinini tozalash usullari va chegaralash qoidasi bo'yicha signal shovqin nisbatlari hisoblab chiqilgan bo'lib, natijalar 2-jadvalda keltirilgan.


Keltirilgan 2-jadvalda tajriba signali sifatida EKG signali olindi va turli veyvletlarda shovqindan tozalash usullari hamda chegaralash qoidalariga ko'ra tiklangan signal tahlil qilindi. Elektr uzatish liniyasi shovqinlarini bartaraf qilishda signal shovqin nisbati (SNR) bo'yicha ikkinchi tartibli Dobeshi veyvletining qattiq chegaralash qoidasiga asosan Sure usuli qolgan usullarga nisbatan ~2 dB yuqori qiymatni ko'rsatdi. O'rta kvadratik xatolik qiymati bo'yicha esa 0,01 ni tashkil etdi.

2-jadval.

EKG signalini veyvletlar asosida elektr uzatish liniyasi shovqinini tozalash usullari bo'yicha signal shovqin nisbati


Veyvlet turi	Chegaralash qoidasi	Shovqinni tozalash usullari bo'yicha signal shovqin nisbati (SNR)			
		Universal	Sure	Bayes	Minimax
HAAR	Yumshoq	34.97	35.91	32.37	34.20
	Qattiq	38.62	39.11	37.13	36.24
Symlet2	Yumshoq	32.72	32.96	31.23	32.20
	Qattiq	38.75	38.17	37.64	36.78
Symlet4	Yumshoq	29.33	28.45	28.14	27.52
	Qattiq	34.51	32.18	35.62	30.12
Bior 2.4	Yumshoq	26.44	28.38	25.23	25.78
	Qattiq	28.32	28.32	28.32	28.32
Bior 5.5	Yumshoq	29.12	29.12	29.12	29.12
	Qattiq	31.45	31.45	31.45	31.45
Meyer	Yumshoq	25.61	24.33	24.92	27.15
	Qattiq	28.30	29.22	28.11	27.74
Db2	Yumshoq	41.31	43.76	42.22	40.35
	Qattiq	42.43	45.44	42.16	41.14
Db4	Yumshoq	41.94	42.76	39.13	40.41
	Qattiq	40.62	43.98	41.23	42.53

Tadqiqot ishida ikkinchi tartibli Dobeshi veyvlet o'zgartirishlaridan foydalangan holda tasvirlarni siqish algoritmi ishlab chiqilgan. Uning blok sxamesi quyidagi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Ikkinchi tartibli Dobeshi veyvletidan foydalangan holda tasvirlarni siqish algoritmi


Radiologik diagnostika tasvirlarini darajali siqish natijalari ko'ra 512x512 o'lchamli tasvirni 8-darajali parchalanishlar bo'yicha nol koeffitsiyentlarning siqish koeffitsiyentlarga nisbatlari aniqlandi. Turli parchalanish darajalari bo'yicha tadqiqot o'tkazildi, natijada 3-darajali parchalanishning o'zidayoq nol koeffitsiyentlarning siqish koeffitsiyentlariga nisbati 98% ni tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida yuqori darajadagi siqish samaradorligini ta'minlaydi.



5-rasm. Radiologik diagnostika tasvirlarini tasniflash uchun veyvletlarga asoslangan konvolutsion neyron tarmoq algoritmi


Radiologik diagnostika tasvirlarini tasniflash uchun veyvletlarga asoslangan konvolutsion neyron tarmoq algoritmi ishlab chiqilgan. Uning blok sxemasi yuqoridagi 5-rasmda keltirilgan.

Tadqiqotda eng keng tarqalgan o'pka kasalliklarini ko'p toifali tasniflash uchun chuqur o'rganish modeli loyihalangan. Tasniflash algoritmining bajarilish sxemasi quyidagi ko'rinishga ega (6-rasm).



6-rasm. Taklif etilayotgan algoritmning ishlash ketma-ketligi

Yuqoridagi chizmada o'pka rentgen tasvirlarini tasniflash va tashxislash uchun algoritm bajarilish bosqichlari keltirib o'tilgan. Ishlov berish bosqichida dastlab shablon mezonlariga javob berishi uchun barcha tasvirlar 128x128 o'lchamga keltiriladi va tasvirdagi har bir piksel [0,1] oraliqda normallashtirgandan so'ng, barcha tasvirlar massiv ma'lumotlar ko'rinishiga aylantiriladi. Xususiyatlarni ajratib olishda Dobeshi veyvletiga asoslangan WCNN chuqur neyron tarmog'i ishlatiladi. Tasniflash bosqichida ko'p qatlamli perceptrondan foydalaniladi. Tarmoq arxitekturasi quyidagi 7-rasmda keltirib o'tilgan.



7-rasm. Tavsiya etilayotgan Dobeshi veyvletiga asoslangan WCNN modeli arxitekturasi

O'pka rentgen tasvirlarini sinflashtiruvchi WCNN neyron tarmoq modeli arxitekturasi quyida keltirilgan 3-jadvaldagi giperparametrlar asosida loyihalangan. Neyron tarmoqni o'qitish uchun o'quv ma'lumotlar to'plamini shakllantirishda 5 ta sinfga (O'pka sili, bakterial pnevmoniya, sog'lom o'pka, viral pnevmoniya,

COVID-19) tegishli bo'lgan 10465 ta 128x128 o'lchamli o'pka rentgen tasvirlaridan foydalanilgan. Neyron tarmoqni o'qitishda o'quv ma'lumotlar to'plami mos ravishda 80%, 10%, 10% nisbatida o'quv(train), nazorat(validation), test(test) qisimlariga ajratilgan.

3-jadval.

Neyron tarmoq giperparametrlari

№	Qatlamning nomi	Qatlam parametrlari	Qatlamlar soni
1	Kirish	O'pka rentgen tasviri (128x128)	1
2	Konvolyutsiya qatlam	Filtr o'lchami = 3x3, filtrlar soni = 32, qo'zg'alish qadami [1, 1], faollashtirish funksiyasi = ReLU, Dropout=20%	2
3	Birlashtirish qatlami	2-tartibli Dobeshi veyvleti	1
4	Konvolyutsiya qatlam	Filtr o'lchami = 3x3, filtrlar soni = 32, qo'zg'alish qadami [1, 1], faollashtirish funksiyasi = ReLU, Dropout=20%	2
5	Birlashtirish qatlami	2-tartibli Dobeshi veyvleti	1
6	To'liq bog'langan qatlam (FC)	Qatlam o'lchami =512, faollashtirish = ReLU, Dropout=20%	1
7	To'liq bog'langan qatlam (FC)	Qatlam o'lchami =256, faollashtirish funksiyasi = ReLU, Dropout=20%	1
8	To'liq bog'langan qatlam (FC)	Qatlam o'lchami =128, faollashtirish funksiyasi = ReLU, Dropout=20%	1
9	To'liq bog'langan qatlam (FC)	Qatlam o'lchami = 5, faollashtirish funksiyasi = softmax	1
10	O'qitish parametrlari	Optimallashtirish algoritmi: Adam, o'qitish qadami uzunligi 0,000009, Batch o'lchami=32, Epoch=150	

Neyron tarmoqni o'qitishda 150 ta davr belgilandi. O'qitish natijalariga ko'ra neyron tarmoq o'quv to'plamida 98.7 % aniqlikni ko'rsatdi. Model o'qitish natijalari **Precision, Recall va F1-score** ko'rsatkichlari bo'yicha baholandi. Quyidagi 4-jadvalda nazorat va test to'plamlari uchun natijalari sinflar kesimida keltirilgan.


4-jadval.

Nazorat va test to'plamlaridagi o'rtacha aniqlik ko'rsatkichlari

Sinf turi	O'rtacha aniqlik ko'rsatkichlari %da					
	Precision		Recall		F1-score	
	nazorat	test	nazorat	test	nazorat	test
Bakterial pnevmoniya	97,2	95,2	94,8	94,1	95,98	94,64
Covid-19	96,7	96,3	95,4	95,2	96,04	95,74
Sog'lom	99,4	98,2	97,3	98,5	98,33	98,34
Sil	96,3	96,8	94,5	94,4	95,39	95,58
Viral pnevmoniya	96,5	95,6	93,7	95,9	95,07	95,74
O'rtacha	97,22	96,42	95,14	95,62	96,2	96,01

Tadqiqot ishida shuningdek, o'pka saratoni turlari bo'yicha tasvirlarni tasniflash uchun ikkinchi tartibli Dobeshi veyvletiga asoslangan konvolutsion neyron tarmoq arxitekturasi taklif qilingan. Neyron tarmoqni o'qitish uchun o'quv ma'lumotlar to'plamini shakllantirishda 3 ta sinfga tegishli bo'lgan 6098 ta 512x512

o'lchamli o'pka tomografik tasvirlaridan foydalanilgan. Konvolyutsion neyron tarmog'i tasvirlarni diskret veyvlet o'zgartirishidan olingan kirishlar sifatida qabul qiladi va ularni tasniflash bosqichida sog'lom, xavfli va xavfsiz saraton deb tasniflaydi. Neyron tarmoq arxitekturasini loyihalash yuqorida keltirilgan 4-jadvaldagi kabi amalga oshiriladi. Faqat, kiruvchi qatlamda o'pka tomografik tarviri o'lchami 512x512 bo'lganligi sababli, 2-darajali veyvlet mashtablashtirishi oraqali uning o'lchamini 128x128 ga keltirib olinadi. Shuningdek, chiqish qatlamida tugunlar soni mos ravishda 3 ta va o'qitish davri 100 ta etib belgilandi. O'pka tomografik tasvirini tasnifi uchun tavsiya etilgan modelning ishlash sxemasi quyidagi 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. O'pka tomografik tasvirini tasnifi uchun tavsiya etilgan modelning ishlash sxemasi

Neyron tarmoqni o'qitish AMD Ryzen 7-6800H, x86-64, 8x3.2-4.7 GHz rusumli mikroprotessor hamda Nvidia Geforce 3060 RTX 6Gb rusumidagi grafik protessorida amalga oshirildi. Ushbu tarmoqni o'qitishda 100 ta davr belgilandi va umumiy 11 soat vaqt sarfladi. O'qirish mobaynida neyron tarmoq o'quv to'plamida 99.1% aniqlik (Accuracy) ko'rsatkichga erishdi. Taklif etilgan tomografik tasvirlarni tasniflovchi modelning nazorat va test to'plamlari uchun o'rtacha aniqlik ko'rsatkichlari quyidagi 5-jadvalda keltirilgan.


5-jadval

Nazorat va test to'plamlaridagi o'rtacha aniqlik ko'rsatkichlari

Sinf turi	O'rtacha aniqlik ko'rsatkichlari %da					
	Precision		Recall		F1-score	
	nazorat	test	nazorat	test	nazorat	test
Xavfli saraton	98,3	97,6	97,2	96,7	97,7	97,1
Xavfsiz saraton	97,5	98,2	96,8	95,8	97,1	96,9
Sog'lom	99,4	98,8	98,3	97,9	98,8	98,3
O'rtacha	98,53	98,2	97,43	96,8	97,91	97,49

Dissertatsiyaning “**Biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlarini raqamli ishlash dasturiy majmuasi**” nomli to‘rtinchi bobida ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturiy vositalar asosida yaratilgan EKG signallarini elektr uzatish liniyasi shovqinidan tozalash, radiologik diagnostika tasvirlari asosida o‘pka kasalliklarini dastlabki tashxislash va tasniflash uchun dasturiy majmua strukturasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot ishida EKG signali va radiologik diagnostika tasvirlarini veyvlet usullarida raqamli ishlash dasturiy majmuasining strukturasi ishlab chiqilgan bo‘lib, uning funksional modullari quyidagi 9-rasmda keltirib o‘tilgan.




9-rasm. Dasturiy majmuaning umumiy strukturasi

Dobeshi veyvletiga asoslangan o‘pka rentgen va tomografik tasvirlarini tasniflovchi neyron tarmoq modellaridan foydalanish uchun veb texnologiyalariga asoslangan testlash dasturiy vositasi ishlab chiqilgan hamda API (Application Programming Interface) asosida foydalanuvchi va server o‘rtasidagi dasturlararo muloqot interfeysi ishlab chiqildi.

Testlash tizimi ikkita funksional tarkibiy qism, foydalanuvchi interfeysi (frontend) va foydalanuvchi yuborgan radiologik tasvirlarni kassallik turlari bo‘yicha tasniflashni hosil qiluvchi server ilovalari (backend) dan tarkib topgan 10-rasm.

Tavsiya etilgan yondashuvning samaradorligini baholash uchun taklif qilingan WCNN yondashuvini bir xil ma’lumotlar to‘plamidagi DWT - CNN larga asoslangan boshqa yondashuvlar bilan solishtirma tahlillar amalga oshirildi.



10-rasm. API (Application Programming Interface) asosida foydalanuvchi va server o‘rtasidagi bog‘lanishni amalga oshirish

Taqqoslash natijasida taklif etilayotgan WCNN modeli odatiy CNN modeliga nisbatan tasniflash aniqligi bo‘yicha o‘rtacha 10-12% yuqori ko‘rsatkichni qayd etdi. Ushbu dissertatsiya ishi sog‘likni saqlash tizimida inson omiliga qaratilgan bo‘lib, kasalliklarni dastlabki bosqichlarida aniqlash va tashxislashga xizmat qiladi. Shuning hisobiga taklif etilgan modellardan o‘pka kasalliklarini tashxislashda foydalanish mumkin.

XULOSA

“Veyvlet usulida biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlariga raqamli ishlov berish algoritmlari va dasturlari” mavzusida olib borilgan tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. Signallarni raqamli ishlash masalalarida keng qo‘llaniladigan Haar, Meyer, Symlet va Dobeshi veyvlet modellari tahlil qilindi. Natijada, ikkinchi tartibli Dobeshi veyvlet modellari signallar va tasvirlarni filtrlash va tiklash masallarida aniqligi yuqori ekanligi asoslandi.

2. Ikkinchi tartibli Dobeshi veyvletlaridan foydalangan holda EKG signallaridan apparat shovqinlarini tozalash algoritmi ishlab chiqildi. Algoritmni qo‘llash natijasida EKG signalining signal shovqin nisbati ko‘rsatkichi bo‘yicha 45.44 dB ga va o‘rtacha kvadratik xatoligi bo‘yicha 0.01 ga teng bo‘ldi hamda EKG signalini tiklashdagi aniqlik 8-10% ga oshirilishiga erishildi.

3. Ikkinchi tartibli Dobeshi veyvlet usuli yordamida radiologik diagnostika tasvirlari uchun ko‘p masshtabli siqish algoritmi taklif qilindi. Natijada, radiologik tasvirlarni axborot hajmini kamaytirish, shovqinlardan tozalash, sifatini yaxshilashga hamda xususiyatlarini samarali ajratib olishga erishildi.

4. Radiologik diagnostika tasvirlariga raqamli ishlov berish va tasniflash uchun ikkinchi tartibli Dobeshi veyvletiga asoslangan konvolutsion neyron tarmoq modelini loyihalash bosqichlari, arxitekturasi va algoritmi ishlab chiqildi. Natijada klassik CNN modellariga nisbatan Dobeshi veyvletiga asoslangan WCNN modeli tasniflashda 10-12% yuqori aniqlikni ko‘rsatdi va taklif etilgan WCNN neyron tarmoq modellaridan foydalanib, o‘pka rentgen va tomografik tasvirlaridan bakterial pnevmoniya, Covid-19, sil, sog‘lom o‘pka, viral pnevmoniyani aniqlashda test ma‘lumotlar to‘plami uchun 97,3% hamda sog‘lom, xavfli va xavfsiz saraton turlarini tasniflashda 99.8 % aniqlikka erishildi.

5. EKG signali va radiologik diagnostika tasvirlarni veyvlet usullarida raqamli ishlash dasturiy majmuasining strukturasi ishlab chiqildi. Strukturada ko‘krak qafas rentgen tasvirlaridan o‘pka kasalliklarini tasniflashning veyvletlarga asoslangan

konvolutsion neyron tarmoq modeli asosidagi tashxislash dasturiy vositasining funksional tuzilmasi, ishlash tamoillari va foydalanuvchi interfeyslari keltirib o‘tildi. Strukturaga asosan tashxislash dasturi uchun veb texnologiyalariga asoslangan dasturiy vosita loyihalandi hamda API asosida foydalanuvchi va server o‘rtasidagi dasturlararo muloqot interfeysi ishlab chiqildi.

6. Veyvlet usulida biotibbiyot signallari va radiologik diagnostika tasvirlariga raqamli ishlov berish algoritmlari asosida yaratilgan dasturiy majmua Samarqand viloyati 1-son shahar shifoxonasida, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand filialida, Sirdaryo viloyati, Guliston shahar, “RDM” xususiy klinikasida, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Sirdaryo filialida hamda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markaziga joriy qilindi. Mazkur algoritmlar asosida yaratilgan dasturiy majmua Sog‘liqni saqlash tizimida EKG signallarini apparat shovqinlaridan tozalashda, radiologik diagnostika tasvirlarining aniqligini oshirishda, rentgen va tomografik tasvirlardan kasalliklarni tasniflash va aniqlash masalalarida samarali natijalarga erishildi. Dasturiy vositalarning tatbiq etilishi ilmiy-tadqiqotlar samarasini, olingan natijalarning informativligi, aniqligi va ishonchliligini oshirdi hamda xatoliklarning 7-11 foizga kamayishiga olib keldi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ Dsc.13/30.12.2019.Т.07.01 ПО ПРИСВОЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЖУРАЕВ УМИДЖОН САЙФУЛЛАЕВИЧ

**АЛГОРИТМЫ И ПРОГРАММЫ ЦИФРОВОЙ ОБРАБОТКИ
БИМЕДИЦИНСКИХ СИГНАЛОВ И РАДИОЛОГИЧЕСКИХ
ДИАГНОСТИЧЕСКИХ ИЗОБРАЖЕНИЙ ВЕЙВЛЕТ-МЕТОДОМ**

05.01.04–Математическое и программное обеспечение вычислительных машин,
комплексов и компьютерных сетей

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент–2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего Образования, Науки и Инноваций Республики Узбекистан за B2024.1.PhD/T2193

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: Зайнидинов Хакимжон Насиридинович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: Кабулов Анвар Васильевич
доктор технических наук, профессор

Каршиев Зайнидин Абдувалиевич
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация: Ферганский политехнический институт

Защита диссертации состоится « 5 » сентября 2024 г. в 14⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.01 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-43; e-mail: iktuit@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный номер № 315). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-70).

Автореферат диссертации разослан « 19 » июня 2024 года.
(протокол рассылки № 10 от « 15 » июня 2024 г.).



M. M. Musaev
М.М. Мусаев
Председатель Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

E. Sh. Nazirova
Э.Ш. Назирова
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, профессор

D. B. Sultanov
Дж.Б. Султанов
Председатель научного семинара при Научном
совете по присуждению учёных степеней,
доктор технических наук, доцент

Введение (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировом развитии информационно-коммуникационных технологий в восстановлении сигналов, анализе сигналов и цифровой обработке изображений широко применяются вейвлеты Хаара, Добеши, Мейира, Койфлета. Одним из важных вопросов является разработка улучшенных математических моделей, а также алгоритмов для уменьшения ошибок и вычислительных операций, возникающих при цифровой обработке сигналов с использованием вейвлетов. Ведутся прогрессивные исследования в таких странах, как США, Германия, Франция, Великобритания, Япония, Австралия, Южная Корея, Китай, Индия, Российская Федерация по разработке методов, математических моделей, алгоритмов и программных средств цифровой обработки сигналов и изображений с помощью вейвлетов. По данным Агентства по статистике при Президенте Республики Узбекистан, число умерших в январе-июне 2023 года в нашей стране составляет 79,8 тысяч человек¹. Согласно этому, 51,9 процента зарегистрированных за шесть месяцев смертей произошли из-за болезней системы кровообращения, 11,5 процента - из-за болезней органов дыхания, 9,5 процентов - из-за опухолей. Еще 4,4% людей умерли от болезней органов пищеварения, 3,6% от несчастных случаев, отравлений и травм, 1,4% от инфекционных и паразитарных заболеваний, 17,7% от других болезней. Поэтому первичная и правильная диагностика и раннее выявление различных заболеваний остаются сегодня одной из наиболее актуальных проблем.

На сегодняшний день внимание и спрос на медицинскую сферу в мире растет с каждым днем, так как своевременное устранение заболеваний пациентов и постановка точного диагноза, качественное и своевременное выявление ее анализов, а также экономия материальных ресурсов являются одними из основных вопросов. По этой причине цифровая обработка и анализ сигналов, поступающих от человеческого организма, являются одной из актуальных проблем сегодняшнего дня. Для решения таких задач, а также для достижения более высокого уровня точности необходимо сократить количество вычислений и провести исследования за счет улучшения моделей, методов и алгоритмов расчета вейвлет-коэффициентов Добеши, которые считаются важными в цифровой обработке сигналов и изображений. Эти проблемы могут быть решены путем анализа и определения соответствия вейвлетов, используемых в цифровой обработке сигналов.

В нашей республике также активно ведутся научно-исследовательские работы, направленные на использование вейвлетов Хаар, Добеши, Мейир, Койфлет в цифровой обработке медицинских сигналов. Особое внимание в республике уделяется разработке программных средств цифровой обработки сигналов, включая анализ, восстановление биомедицинских сигналов и радиологических диагностических изображений. В частности, в новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы намечен ряд задач по

¹ <https://stat.uz/uz/nashrlar-menu/infografikalar/396-infografikalar/34842-2023-11113>

широкому внедрению цифровых технологий во всех сферах жизни общества. К ним относится внедрение технологий цифровизации в экономику, социальную сферу и системы управления¹. В частности, в указе президента «О реализации Стратегии развития системы здравоохранения, охраны здоровья населения, цифровизации сферы здравоохранения на 2022-2026 годы», а так же в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 23 февраля 2021 года № ПП-5000 «О мерах по эффективной организации цифровизации в сфере здравоохранения» конкретизированы ряд задач, связанных с цифровизацией.

При реализации этих задач, в том числе при цифровой обработке сигналов, с использованием существующих вейвлет-моделей, разработка усовершенствованной вейвлет-модели, решение важных вопросов в медицине является одной из актуальных проблем сегодняшнего дня.

Постановление Кабинета министров №-17 «О мерах по организации деятельности технологического парка программных продуктов и информационных технологий» от 10 января 2019 года, постановление Президента Республики Узбекистан №-4996 «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта»² от 17 февраля 2021 года предусматривают применение технологий искусственного интеллекта для выявления пневмонии на основе компьютерной томографии легких и ранней диагностики рака груди на основе маммографического анализа, а также выполнение задач, определенных другими нормативно-правовыми актами, касающимся данной деятельности, в определенной степени послужит данное диссертационное исследование.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники Республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики IV. «Развитие информатизации и информационно-коммуникационных технологий».

Уровень изученности диссертационного исследования. Проблемы разработки одно и двухпеременных вейвлет-моделей и алгоритмов Добеши в цифровой обработке сигналов широко освещены в мировой и узбекской научной литературе. Зарубежные ученые по цифровой обработке сигналов в изображений: А.Хаар, И.Добеши, Ю.Мейер, К.Чуи, С.Ф.Свинин, С.В.Стечкин, О.В.Нагорнов, М.Лофти, Д.Сингх, Г. Стренгом исследования проводились и другими иностранными учеными.

